



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING BUYRUG'I

Toshkent sh.

Nº 428

2021-y.“21” 10

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutini tashkil etish to'g'risida” 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5261-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston davlat konservatoriysi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutini tashkil etish to'g'risida” 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5261-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

O'zbekiston davlat konservatoriysi huzurida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti (keyingi o'rnlarda – Institut) tashkil etilganligi;

Institut davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanib, O'zbekiston davlat konservatoriysi (keyingi o'rnlarda - Konservatoriya) tarkibida faoliyat yuritishi;

Institutda o'quv jarayoni 2021/2022 o'quv yilidan boshlanib, ta'lim davlat granti hamda to'lov-kontrakt asosida amalga oshirilishi;

2022/2023 o'quv yilidan boshlab Institutga qabul parametrlari belgilangan tartibda har yili tasdiqlanadigan respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilishi;

Institut bitiruvchilariga oliy ta'lim to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan davlat namunasidagi diplom berilishi;

Konservatoriya uchun tasdiqlangan bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlari Institutga ham tatbiq etilishi;

Institut professor-o'qituvchilarini va konsertmeysterlariga Madaniyat vazirligi tizimida uzoq muddat xizmat qilganligi uchun har oylik taqdirlash puli (ustama) to'lab borish tartibi tatbiq etilganligi;

Konservatoriya kengashining qaroriga asosan Konservatoriyaning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan Institut moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga va Institut kengashining qaroriga asosan Institutning byudjetdan tashqari mablag'lari

hisobidan Konservatoriya moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga ruxsat berilganligi;

institut konservatoriyaning moddiy-texnika bazasidan va konservatoriya institutning moddiy-texnika bazasidan tekin foydalanish huquqiga ega ekanligi;

2021/2022 o‘quv yilidan boshlab konservatoriyada qabul to‘xtatilib, institutga o‘tkaziladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

institutda 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab yangi ochiladigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ro‘yxatda keltirilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida tahsil olayotgan konservatoriyaning 2–4 kurs talabalari 2021/2022 o‘quv yilidan o‘qishini Institutda davom ettirishi va o‘qish yakuni bo‘yicha ularga davlat namunasidagi diplom berilishi belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

3. Ta’lim muassasalari va sohani metodologik ta’minlash boshqarmasi (Mizamov), Konservatoriya (Urinbayev), 3 kun muddatda 2021/2022 o‘quv yili qabul kvotalari bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasiga tasdiqlash uchun kirtsin;

Uch oy muddatda Institut tuzilmasini oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan normativlarga muvofiq ishlab chiqish va tasdiqlash;

Institut ustavini ishlab chiqib, tasdiqlash va belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

bir hafta muddatda Institut faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, tasdiqlash va ijrosini nazoratga olish, shuningdek, Institut bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta’minlash;

Uch oy muddatda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish;

Bir oy muddatda Institutning ilmiy-pedagog kadrlari tarkibini oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda hamda Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan, shu jumladan xorijiy ta’lim va ilmiy muassasalarda malakasini oshirib kelgan professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar, shuningdek, sohadagi salohiyatli amaliyotchi mutaxassislar orasidan shakllantirish;

2022/2023 o‘quv yilidan boshlab respublikadagi bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari, maktab-internatlar hamda madaniyat, musiqa va san’at kollejlariga Institutning yetakchi professor-o‘qituvchilari hamda mamlakatimizda ijod qilib kelayotgan taniqli estrada ijodkorlarini biriktirish orqali “Mahorat darslari”ni yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

4. Konservatoriya (Urinbayev):

salohiyatli kadrlarni jalb etgan holda ta’lim va ilmiy faoliyatni sifatli tashkil etish;

ta’lim, tarbiya, ilmiy, uslubiy va ijodiy jarayonlarni samarali boshqarish;

ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

darslik, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy material va axborot resurslari bilan ta'minlash;

professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish va iqtidorli yoshlar seleksiyasini amalga oshirish;

ilmiy-tadqiqot ishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish va ilmiy maktablarni rivojlantirish yo'naliishlarida Institutga ko'mak berib borsin;

Shuningdek, Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuasi va muzey;

milliy estradamiz namoyandalarining "ustoz-shogird" ijrochilik maktablari; zamonaviy ijodiy studiyalar va axborot-resurs markazini tashkil etsin.

5. Ta'lim muassasalari va sohani metodologik ta'minlash boshqarmasi (Mizamov), Konservatoriya (Urinbayev) tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

muzeysiga Botir Zokirov va Zokirovlar ijodiy sulolasi hayoti va faoliyati, milliy estrada san'atimiz rivojlanishi va dunyo miqyosida keng targ'ib etilishini yorqin aks ettiruvchi eksponatlarni, Botir Zokirov ijodiga mansub tasviriy san'at namunalari hamda adabiy asarlarni jamlasin hamda unda muntazam ravishda ko'rgazma-ekspozitsiya tashkil etib borsin;

Institutda "ustoz-shogird" ijrochilik maktablarini tashkil etishda milliy estradamiz namoyandalari vakillarini jalb etsin hamda ular bilan birgalikda samarali faoliyat olib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratsin;

ijodiy studiyalarni zamonaviy zarur jihoz va texnikalar, shuningdek, axborot-resurs markazini musiqa darsliklari, notalar to'plamlari hamda o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlasin.

6. Ishlar boshqarmasi (Dadaboyev):

Institutni vaqtinchalik Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beshyog'och mavzesi, Darxon ko'chasi, 157-uyda joylashgan 3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi bino va inshootlariga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston davlat konservatoriysi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 8 , avgustdagি PQ-3178-sон qaroriga asosan Konservatoriya tutash hududda qurilishi yakunlanayotgan Konservatoriya huzuridagi Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazining o'quv binosi va talabalar turar joyi operativ boshqaruv huquqi bilan Konservatoriya topshirilishi hamda ushbu obyektlarga Markaz va Institut tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish ishlarni amalga oshirsin.

7. Iqtisodiy tahlil va moliya boshqarmasi (Yunusov):

mazkur qarorda nazarda tutilgan xarajatlarni moliyalashtirish 2021-yilda respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Madaniyat vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida, 2022-yildan boshlab esa Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilganligini;

Institutga 3 ta, shu jumladan, 1 ta shaxsan biriktirilgan, gastrol-konsert faoliyati uchun zarur bo'lgan 1 ta avtobus va 1 ta yuk tashuvchi avtotransport vositasini saqlash uchun limit ajratilganligi belgilab qo'yilganligini nazarda tutsin.

8. Vazir o'rinosari (Mirzayev) onlayn ma'ruza hamda masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish uchun Institutni telekommunikatsiya jihozlari

va infratuzilma bilan ta'minlash, shuningdek, yuqori tezlikdagi Internet hamda "Elektron ta'lim" milliy tarmog'iga belgilangan tartibda ulash choralarini ko'rsin.

9. Ta'lim muassasalari va sohani metodologik ta'minlash boshqarmasi (Mizamov) qonunchilik hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirit sin.

10. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

O.Nazarbekov